

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA SITOMEGALOVIRUSLI INFEKSIYASINI ERTA LABORATOR DIAGNOSTIKASI.

Erkinova Nozima Ravshanjon qizi
Vrachlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
nozimahoshimova@bk.ru

Mavzu dolzarbligi Sitomegalovirus bu opportunistik infeksiya bo'lib, virus inson tanasida uzoq vaqt davomida o'zini hech qanday tarzda oshkor qilmasdan va hech qanday patologik jarayonlarni keltirib chiqarmasdan mavjud bo'lishi mumkin. Xozirgi kunda butun dunyo bo'yicha sitomegalovirusli infeksiya bilan kasallanish dolzarb muammolardan biridir va buning natijasida homilador ayollarda erta abort, homilaning eshitish, ko'rish sistemalarida nuqsonlar bilan tug'ilishi, ayollarning homilador bo'lishining kechikishiga sabab bo'ladi. SMV havfli guruhlariga 5-6yoshli bolalar, 15-45 yosh oralig'idagi kattalar ekanligi va ularning aksariyati tug'ish yoshidagi ayollar ekanligi masalaning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot maqsadi. Tug'ruq yoshdagi ayollarda sitomegalovirus infeksiyasini erta aniqlash va davolash chora tartiblarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning material va uslublari. O'tkir sitomegalovirus infeksiyasining asosiy laborator markyorlari IgM va IgG hisoblanadi. Ig M virus organizmga yuqgan dastlabki jarayonlarda ajrala boshlaydi. Kasallik bilan zararlanishning 5 - 7 kunlarida Ig M qonga ajraladi, miqdori asta sekinlik bilan oshib borib, katta ehtimol bilan 1 - 2 oydan so'ng yo'qoladi. Ig G zararlanishning dastlabki 10 - 14 kunlarida qonda aniqlana boshlanadi va butun umr davomida saqlanib qoladi. Har ikki Iglar IFA usulida aniqlanadi, bu usulning aniqlik darajasi 30-88 % ga tengdir.

Bundan tashqari, virusning DNK sini biologik suyuqliklardan (qon, siydik, orqa miya suyuqligi, so'lak) aniqlanadigan PZR usulidan foydalanish ham kasallikka aniq tashxis qo'yishda ahamiyatlidir. PZR usuli virus DNK sini replikasiya yo'li bilan ko'paytirib aniqlaganligi uchun ham sezuvchan va ishonchli usul hisoblanadi va aniqlik darajasi 93-95 % ni tashkil etadi.

Qo'shimcha aniqlash usuli sifatida immunablot hamda IXLA usulini ham qo'shishimiz ham maqsadga muvofiqdir.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytilish joizki, sitamegalovirus infeksiyasining erta diagnostikasi homladorlar va homilaning salomatligini saqlashda, ularda yuzaga kelgan kasallik alomatlarini erta bartaraf etishda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.
3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o'g'li. (2023). CHEKISH BILAN BOG'LIQ O'PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723
4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.
5. Ravshanbekovna, M. N., Sarvarbek Gayratjon og, M., & Alijon o'g'li, T. A. (2024, January). AYRISH SISTEMASIDAGI BUYRAKNING AHAMYATI. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 16, pp. 11-14).
6. Erkinjon o'g'li, M. X. BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT.
7. Madraximova, N. R. (2024). O 'PKA KASALLIKLARNI ANIQLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLAR. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 36-38.
8. Sarvarbek Gayratjon og M. et al. BIOLOGIK QON TOMIR PROTEZ MATERIALLARINING TARKIBI VA XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 36. – №. 3. – С. 112-120.